



Abu Ali ibn Sino – buyuk qomusiy olim, tabib va faylasuf. U 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan. G'arbda esa Avitsenna nomi bilan mashhur.



Abu Ali ibn Sino

(Rivoyat)

Rivoyat qilishlaricha, Buxoro muzofotida dunyoga dong'i ketgan, mashhur hakimlarning hakimi dono ibn Sino yashar ekan. Kunlardan bir kun amir kasalga chalinibdi. Amirni avvaliga saroy tabiblari davolabdilar. Natija bo'limgach, ibn Sinoga murojaat qilibdilar. Ibn Sino dori-darmonidan amir dardiga shifo topibdi.

Amir ibn Sinodan:

- Nima bersam xursand bo'lsasan? – deb so'rabdi.
- Menga hech qanday tilla ham, suruv-suruv ot, qo'ylar ham kerak emas. Qishlog'imga bir qiroatxona qudirib, qirq tuya kitob bersangiz bo'lgani, – debdi ibn Sino.

Amir bunday javobdan mammun bo'lib, ibn Sinoning qishlog'iga qiroatxona qudiribdi. Butun dunyoga jar soldirib kitob yig'diribdi. O'zining boy kutubxonasidan ham eng nodir kitoblarni olib, qirq tuyaga yuklab, ibn

Sino qishlog'iga jo'natibdi. Amirni o'limdan olib qolgan ibn Sinoning dong'i har tomonga ketibdi. Boshqa tabiblar unga hasad bilan qaray boshlashibdi. Ular kutubxonaga kirib, kitoblar orasidan ibn Sinoni zo'rg'a topishibdi va undan:

- Saroydan kelganingizdan buyon shu yerda kitob titkilab yotibsizmi? – deb so'rashibdi.
- Ha, eng yaqin do'stlarim – kitoblar bilan suhbat qurib, kun-u oy, hafta-yu yillar o'tganini ham sezmayapman, – debdi ibn Sino.
- Tabiblik-chi, tabiblikni tashladingizmi? – deb so'rabdi tabiblardan biri.
- Yo'q, tabiblikni astoydil qilmoqdaman. Avvalo, ulug' zotlarning pand-nasihatlarini, ko'rsatmalarini bilib olib, so'ng davolashni ma'qul topdim.





Abu Ali ibn Sino

Men shu kungacha o'zimni tabib hisoblab, katta xatoga yo'l qo'ygan ekanman. Endi mana shu kitoblardan o'rganganlarimni amaliyot bilan mustahkamlashim kerak. Shundagina o'zimni tabib deb atashga haqli deb bilaman, – debdi.

Tabiblardan biri:

– Bordi-yu, kutubxonaga o't ketsa nima bo'ladi? – deb so'rabdi.

Ibn Sino:

– Avvalambor, kutubxonaga o't ketishiga yo'l qo'ymayman. Bordi-yu, falokat ro'y berib o't ketsa, unda cho'chiydigan joyim yo'q. Bu kitoblarning hammasini yod oldim. Qaytadan yozishga umrim yetsa, kifoya, – debdi.

Tabiblar ibn Sinoning zehni hamda xotirasiga qoyil qolibdilar.



muzofot – viloyat

dong'i – ovozasi, dovrug'i

suruv-suruv ot – otlar to'dasi

qiroatxona – kitob o'qish xonasi

kifoya – yetarli



1. Rivoyat do'stlik haqidagi bo'limda berilishiga nima sabab deb o'ylaysiz?
2. Ibn Sino nima uchun kutubxonaga o't ketishidan qo'rmas edi?
3. Rivoyatda olimning qanday fe'l-atvori haqida so'z boradi?
4. Olimning qaysi xislatini siz o'zingizda bo'lishini xohlardingiz?



Rivoyatni rollarga bo'lib o'qing.

Matnni o'qing va rivoyat mazmuniga bog'lang.

RIVOYAT nima?

"Rivoyat" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "hikoya qilmoq" degan ma'noni bildiradi. Rivoyat – voqeal va hodisalarini, inson faoliyatini ba'zan uydirmalar vositasida, ba'zan real tasvirlovchi og'zaki hikoya. Ko'pincha rivoyat asosida voqelik va tarixiy shaxs bilan bog'liq hodisalar yotadi. Axloqiy qarashlar asosida aytilgan rivoyatlar ham ko'p. Rivoyatlar xalq tarixi hamda madaniyatini o'rganishda muhim manbadir.